

## OGAHIYNING TARIXIY ASRLARI VA UNING BUGUNGI KUNDA TARIXNI O'RGANISH UCHUN ASOS SIFATIDA KO'RILISHI<sup>1</sup>

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

*3-kurs fors-ingliz guruhi talabasi*

***Ubaydullayev Abbosxon***

*Tel nomer: +998993454907*

*Email: abbos.daniyarevich@gmail.com*

**Annotasiya:** Ushbu maqolada Muhammad Rizo Ogahiyning to'rt tarixiy asari hisoblanmish Riyoz ud-davla", "Zubdat ut-tavorix", "Jomi' ul-voqeoti sultoniyy" va "Gulshani davlat" nomli tarixiy asarlari haqida qisqacha ma'lumot berilgan bo'lib asarlarning Xorazm tarixini o'rganishda ma'lum bir katta vazifani bajaraganini aytishimiz mumkinligi. Bu asar orqali biz Xorazm tarixini 1825-yildan 1865-yilgacha Xorazmda sodir bo'lgan tarixiy voqealarni ushbu asarlardan bilib olishimiz mumkin.

**Kalit so'zlar:** Riyoz ud-davla", "Zubdat ut-tavorix", "Jomi' ul-voqeoti sultoniyy" va "Gulshani davlat" nomli tarixiy asarlari, Erniyozbek o'g'li Muhammad Rizo laqabi Ogahiy,

Qimmatli qo'lyozma manbaalaridan biri Ogahiyning "Riyoz ud-davla" asari bo'lib, bu asar 1825 yildan 1842-yilgacha Xorazmda bo'lgan voqealarni o'z ichiga oladi. Bu asar Ogahiy tarafidan 1260-1844-yilda yozilgan<sup>2</sup>.

Ogahiy o'zining "Riyoz ud-davla" asarini, shuningdek, quyida keltirilgan asarlarni yozar ekan, o'sha davr tarixchilarning an'anasiga muvofiq, hamd va na't bilan boshlaydi. So'ngra o'z hayoti haqida qisqacha gapirib, Olloqulixonni maqtaydi. Undan so'ng tarix ilmiga ta'rif berib, bu asarning yozilish tarixiga va buning yozilishiga sababchi bo'lgan shaxslar haqida gapiradi. So'ngra voqealarni bayon etishni Olloqulixonning tug'ilishidan boshlab, to vafotigacha Xorazmda bo'lgan tarixiy voqealar haqida yozadi. Asarning muqaddimasida muallif juda kamtarlik bilan bu asarning yozilishi haqida gapiradi: "Erniyozbekning o'g'li Muhammad Rizo mirob taxallusim Ogahiy o'z ahvolimni quyidagicha bayon etaman. Yoshlik chog'larimda boshimga har xil va turli-tuman tashvishlar tushdi. Har tarafdin boshimga balo toshi yog'di. Hamisha ko'nglimga tinchsizlik va ta'bimda xavf hukm surar edi. Lekin jahondin yetgan har xil alamlardan olimlar va shoirlarning suhbatida bo'lish bilan biro z tarqatar edim<sup>3</sup>.

<sup>1</sup> Qarang: maqola Q. Murinov Xorazmda tarixnavislik "G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashryoti" Toshkent-2002 asari asosida yozildi.

<sup>2</sup> Ogahiy. Riyoz ud-davla. Inv. № 5364/II. 247<sup>a</sup> – varaq.

<sup>3</sup> Shu asar. Inv. № 5364/II. 247<sup>b</sup> – varaq.

O‘z ahvoli haqida yuqorida zikr etilgan ma’lumotlarni keltirganidan so‘ng, bu asarning yozilishi haqida quyidagilarni keltiradi: “Bu asarni yozishga boshladim. Asar yozish davomida menga Muhammad Yoqub mehtar yordam berdi. Bu asarni “Riyoziy ud-davla” nomi bilan tadim<sup>4</sup>.

XIX asr Xorazm tarixiga oid asosiy qo‘lyozma manbaalardan biri 1262 (1845-1846) yili Ogahiy tarafidan yozilgan “Zubdat ut-tavorix” nomli asaridir. Bu asar “Riyoziy ud-davla” asaridan keyin davrni ya’ni 1843-yildan 1846-yilgacha Xorazmda bo‘lgan tarixiy voqealarni o‘z ichiga oladi.

Asarning avvali: “ Siposi vofir tuhfası ul sulton azamat nishon ostonig‘a nisordurkim”<sup>5</sup> so‘zi bilan boshlanib oxiri... “Donish ahlining xotiri xatirlariga ma’lum bo‘lsinkim, bu muxtasarning ta’lifi hijriya 1262 (1845-1846)-yilda ilon rabial-avval oyining to‘rtida dushanba kuni ixtimom topdi. Saxv xato va nuqsonni ayb qilmay ma’zur tutsinlar, balki lutf va karam ko‘rgizib, islox bersinlar... Tammat ul-kitob. Sanasi 1279- (1879-1880). Roqimi in kitob Mulla Muhammad Rizo ibn Muhammad Karim devon marhumiy”<sup>6</sup>, so‘zlari bilan tamom bo‘ladi.

Ogahiy bu asarning avvalida “Riyoziy ud-davla” asarini tugatib, Rahimqulixonning oldiga borganligi va o‘zining bu “Zubdat ut-tavorix” nomli asar yozishni boshlaganligi haqida gapiradi. Ogahiy bu asarni ikki qismga bo‘ladi. Birinchi qismda Rahimqulixonning tug‘ilishidan xonlik taxtiga chiquncha bo‘lgan voqealar haqida gapiradi. Ikkinchi qismda esa Rahimqulixonning xonlik taxtiga chiqqandan so‘ng to vafotigacha bo‘lgan voqealar haqida yozadi.

Ogahiy Xorazm tarixiga oid asarlarning uchunchisi “Zubdat ut-tavorix” dan keyin 1826-yildan 1855-yilgacha Xorazmda bo‘lgan tarixiy voqealarni bayon etuvchi “Jomi’ ul-voqeoti sultoniy” nomli asaridir.

Ogahiy bu asar yozilishi haqida asarning muqaddimasida quyidagilarni yozib qoldirgan: “Bu kitobning yozuvchisi Erniyozbek o‘g‘li Muhammad Rizo mirob, taxallusim Ogahiy quyidagilarni bayon etaman. Muhammad Aminxon davlat tepasiga kelgan vaqtda Rahimqulixonning Xorazmda hukumronlik qilgan vaqtidagi bo‘lgan tarixiy voqealarini yozar edim. Uni tezlik bilan tamom etib, Muhammad Aminxonga taqdim etdim<sup>7</sup>.

---

<sup>4</sup>Shu asar. № E6, D.123(590 os)

<sup>5</sup> Ogahiy Zubdat ut-tavorix. Inv. № 821/III. 435<sup>a</sup>- varaq.

<sup>6</sup> O‘sha asar. Inv. № 5364/III

<sup>7</sup> Ogahiy. Jomi’ ul-voqeoti sultoniy. Mazkur qo‘lyozma fondi. №9786 6<sup>a-b</sup>—varaq.

Ogahiy “Zubdat ut-tavorix” asarini yozib tamomlagandan so‘ng bu asarni yozishni boshlagan. Bu haqda quyidagilarni yozadi: “So‘ngra bu kitobimni yozishni boshladim va uni “Jomi’ ul-voqeoti sultoni” deb atadim.

Bu asardan bir nusxa O‘zR Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar fondida saqlanmoqda.

Ogahiyning Xorazm tarixiga oid asarlaridan to‘rtinchisi — “Jomi’ ul-voqeoti sultoni” dan keyin yozilgan va 1856-yildan 1865-yilgacha Xorazmda bo‘lgan voqealarini o‘z ichiga oluvchi “Gulshani davlat” asaridir.

Asarning muqaddimasida uning yozilishi tarixi haqida quyidagi ma‘lumotlar keltirilgan: “ Bu kitobni o‘quvchilarga va mutolaa etuvchilarga ma‘lum bo‘lsinkim, men Erniyozbek o‘g‘li Muhammad Rizo mirob laqabli Ogahiy ko‘p vaqtlardan beri Xorazm tarixini yozish bilan o‘z qatorlarim ichida xursand edim.

Sayyid Muhammadxon davrida bu asarimni yozishni boshladim va uni “Gulshani davlat” nomi bilan atadim<sup>8</sup>. Bu asardan bir nusxa hozigi kunda O‘zR Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar fondida saqlanmoqda.

Ogahiyning “Riyo ud-davla”, “zubdat ut-tavorix”, “Jomi’ ul-voqeoti sultoni” va “Gulshani davlat” nomli tarixiy asarlari qisqartirilgan holda nashr etildi.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki Ogahiyning tarixiy asarlari nafaqat Xorazm davlatining tarixini o‘rganishga, balki Xorazmga chegaradosh bo‘lgan mamlakatlarning ham tarixini va madaniyatini o‘rganishga asos deb hisoblashimiz mumkin. Muhammad Rizo Ogahiyning to‘rt tarixiy asari hisoblanmish Riyo ud-davla”, “Zubdat ut-tavorix”, “Jomi’ ul-voqeoti sultoni” va “Gulshani davlat” nomli tarixiy asarlari haqida qisqacha ma‘lumot berilgan bo‘lib asarlarning Xorazm tarixini o‘rganishda ma‘lum bir katta vazifani bajaraganini aytishimiz mumkinligi. Bu asar orqali biz Xorazm tarixini 1825-yildan 1865-yilgacha Xorazmda sodir bo‘lgan tarixiy voqealarni ushbu asarlardan bilib olishimiz mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Qarang: maqola Q.Murinov Xorazmda tarixnavislik “ G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashryoti” Toshkent—2002 asari asosida yozildi.
2. Ogahiy. Riyo ud-davla. Inv. № 5364/II. 247<sup>a</sup> – varaq.
3. Shu asar. Inv. № 5364/II. 247<sup>b</sup> – varaq.
4. Shu asar. № E6, D.123(590 os)
5. Ogahiy Zubdat ut-tavorix. Inv. № 821/III. 435<sup>a</sup>- varaq.
6. O‘sha asar. Inv. № 5364/III
7. Ogahiy. Jomi’ ul-voqeoti sultoni. Mazkur qo‘lyozma fondi. №9786 6<sup>a-b</sup> –varaq.

<sup>8</sup> Ogahiy. Gulshani davlat. Mazkur qo‘lyozma fondi. Inv. № 7572. 3<sup>b</sup>–5<sup>a</sup> varaq.